


"Madaniyatlararo muloqot: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" mavzusida anjuman o`tkazildi

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-5117-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish agentligi, Xorazm Ma`mun akademiyasi hamda Urganch davlat universiteti hamkorligida "Madaniyatlararo muloqot: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o`tkazildi.





Anjumanni Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi I.Abdullayev ochib berdi. Shundan so`ng, kun tartibidagi masalalar yuzasidan Xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish agentligi vakillari, Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimlari, Urganch davlat universiteti professor o'qituvchilari, shuningdek, Zoom platformasi orqali nufuzli xorijiy universitetlarning professor-o`qituvchilari ishtioq etdi. Anjumanda oliy ta`lim tizimida xorijiy tillarni samaradorligini oshirish, ta`lim oluvchilarning chet tilida fikr yuritish, erkin nutqni amalga oshira olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual faoliyatini shakllantirish, talabalarga chet tilidan sifatli ta`lim bera olish, ularda xorijiy tildagi og`zaki muloqotda ishtirok etish ko`nikmasini shakllantirish kabi dolzarb masalalar bo'yicha ma'ruzalar tinglandi va o'zaro fikr alashildi.